

DASTURIY VOSITALAR YORDAMIDA INGLIZ TILINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK XUSUSIYATLARI

Raxmanova Dilnoza Toshmurzayevna
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada dasturiy vositalarning simulyatsiya va modellashtirish usuli, iqtisodiy jarayonlarni simulyatsiya qilish orqali talabalar real hayotdagi vaziyatlarga tayyorlanishi, qaror qabul qilishi, ko'nikmalarini rivojlantirishi bayon qilingan. Undan tashqari simulyatsiya orqali talabalar muammolarni tahlil qilish, alternativlarni baholash va eng yaxshi yechimlarni tanlash ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha fikrlar keltirilgan. Shuningdek simulyatsiyalar talabalarni muammoni tanqidiy o'rganishga undashi, bu esa ularda analitik fikrlash va tizimli yondashuvni shakllantirishi hamda simulyatsiyalar orqali vaqtni boshqarish, resurslarni taqsimlash va strategik rejalashtirish kabi keng qamrovli ko'nikmalar ham rivojlanishi talqin qilingan.

Kalit so'zlar: Dasturiy vositalarning didaktik imkoniyatlari, o'qitishning erishuvchanligi, muammoliligi, ko'rgazmaliligi, **tizimlilikini** ta'minlash.

Abstract. This article describes the method of simulation and modeling of software tools, the development of students' skills in preparing for real-life situations, making decisions, and developing their skills through simulation of economic processes. In addition, ideas are presented on how students can develop skills in analyzing problems, evaluating alternatives, and choosing the best solutions through simulation. It is also interpreted that simulations encourage students to critically study the problem, which in turn forms analytical thinking and a systematic approach in them, and that simulations also develop comprehensive skills such as time management, resource allocation, and strategic planning.

Keywords: Didactic capabilities of software tools, ensuring accessibility, problemativeness, demonstrability, and systematicity of teaching.

Аннотация. В данной статье описывается метод моделирования и симуляции с использованием программных средств, развитие у студентов навыков подготовки к реальным ситуациям, принятия решений и совершенствования их навыков посредством моделирования экономических процессов. Кроме того, представлены идеи о том, как студенты могут развивать навыки анализа проблем, оценки альтернатив и выбора наилучших решений посредством моделирования. Также показано, что моделирование побуждает студентов к критическому изучению проблемы, что, в свою очередь, формирует

у них аналитическое мышление и системный подход, а также развивает комплексные навыки, такие как управление временем, распределение ресурсов и стратегическое планирование.

Ключевые слова: Дидактические возможности программных средств, обеспечение доступности, проблематичность, наглядность и систематичность обучения.

Kirish va mavzuning dolzarbligi. Dasturiy vositalar yordamida ingliz tilini o'qitish metodikasini rivojlantirishdagi ma'lumotlarni taqdim etish jarayoni, interaktiv va visual elementlar orqali iqtisodiy nazariyalar, tushunchalar va ma'lumotlarni talabalarga yetkazishni anglatadi. Ushbu vositalar talabalarning diqqatini jalb qilish, ularning tushunishini yaxshilash va iqtisodiy bilimlarni amaliyotga tadbiq etish imkoniyatini beradi.

Masalan, simulyatsiyalar, animatsiyalar va interaktiv grafikalar yordamida iqtisodiy jarayonlar real hayotdagi misollar bilan bog'lanadi, bu esa talabalarga iqtisodiy tushunchalarni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Shuningdek, dasturiy vositalar talabalarga o'zaro aloqalar, muammolarni hal qilish va kritikall fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Natijada ma'lumotlarni taqdim etish jarayoni talabalarning iqtisodiy kompetensiyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Dasturiy vositalar interaktiv simulyatsiyalar, rol o'ynash o'yinlari va statistik tahlil vositalari orqali talabalarga amaliy vazifalar va topshiriqlar beradi. Bu jarayon talabalarga jamoaviy ishda ishtirok etish, muammolarni hal qilish strategiyalarini ishlab chiqish va iqtisodiy jarayonlarni nazorat qilishda o'z bilimlarini qo'llash imkoniyatini beradi. Natijada, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish orqali talabalar bilimlarni yanada mustahkamlab, real hayotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishda zarur bo'lgan ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Bu jarayon, shuningdek, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga ham yordam beradi.

Dasturiy vositalar yordamida ingliz tilini o'qitish metodikasini rivojlantirishdagi o'z-o'zini baholash va rivojlantirish jarayoni, talabalarga o'z bilimlari va ko'nikmalarini tahlil qilish, baholash va rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Ushbu vositalar yordamida talabalar o'z yutuqlarini va kamchiliklarini rivojlantiradilar. Dasturiy vositalar interaktiv baholash mexanizmlari, testlar va o'z-o'zini baholash dasturlari orqali talabalarga o'z bilim darajalarini aniqlash va o'zlashtirish jarayonini kuzatish imkoniyatini beradi. Bu jarayon talabalarga o'z maqsadlarini belgilash, ularga erishish yo'llarini rejalashtirish va o'z-o'zini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Dasturiy vositalar yordamida ingliz tilini o'qitish metodikasini rivojlantirishda interaktiv o'rganishning ahamiyati quyidagi jihatlardan iborat:

Interaktiv o'rganish jarayonida talabalar faol ishtirok etadilar. Bu ularda o'rganishga bo'lgan motivatsiyani oshiradi va diqqatni jalb qiladi;

Talabalar interaktiv vositalar orqali iqtisodiy ma'lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon, o'rganilgan bilimlarni tez va samarali ravishda qo'llash imkonini yaratdi;

Interaktiv o'rganish muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Talabalar haqiqiy ijodiy vaziyatlarga muqobillik yaratish orqali ijodkorliklarini namoyon etadilar.

Taqdimot yaratishga mo'ljallangan zamonaviy taqdimot dasturlari:

Google Slides - Google tomonidan taqdim etilgan bepul taqdimot yaratish va tahrir qilish dasturi hisoblanadi. Bu taqdimot dasturi Google Docs Editors to'plamining bir qismidir. Dasturning ilk versiyasi 2006-yil taqdim etilgan. Dastur Android , iOS , macOS , Windows , BlackBerry , Chrome OS kabi tizimlarda ishlashi mumkin. Dastur ko'plab zamonaviy taqdimot shablonlariga ega va multimedia fayllarini qo'llab-quvvatlaydi.

Prezi dasturi 2009-yil Vengriyada yaratilgan bo'lib taqdimotlarida foydalanuvchilarga mavzular o'rtasida panorama qilish, tafsilotlarni kattalashtirish va kontekstni ochish uchun orqaga qaytish imkonini beruvchi xaritalash imkoniyati mavjud. Shuningdek Prezi mashhur video chat platformalari va aloqa vositalari bilan birlashtirilgan. Bularga Zoom, Microsoft Teams, Google Hangouts, Slack, Facebook, GoToWebinar va Webex kiradi.

Ludus foydalanuvchilarni ijodkorlikga undovchi va buning uchun barcha imkoniyatlarni taqdim etuvchi onlayn taqdimot platformasi hisoblanadi. Dastur 2017-yil Lionel Kordier va Vinsent Battaglia tomonidan yaratilgan. Ludus orqali muloqot kabi tushunish oson bo'lgan mukammal taqdimotni jamoaviy yaratish imkoniyatiga egasiz. Dastur kelesajak taqdimotlarini yaratishga ishonadi va u doimiy takomillashib bormoqda.

Canva - bu avstraliyalik grafik dizayn platformasi bo'lib, u ijtimoiy media grafiklari, taqdimotlar, plakatlar, tashrif qog'ozlari, logotiplar va boshqa vizual kontentlarni yaratish uchun ishlatiladi. Ilova grafik obektlar yaratish uchun ko'plab shablonlar jamlanmasiga ega. Dastur 2013-yil yaratilgan. Dasturdan foydalanish bepul.

PowerPoint – zamonaviy taqdimot yaratish uchun barcha imkoniyatga ega bo'lgan dasturiy ta'minot. Dastur 1987-yil Robert Gaskins va Dennis Ostin tomonidan foydalanuvchilarga taqdim etilgan. Keyinchalik Microsoft tomonidan sotib olingan va jadal rivojlantirilmoqda. PowerPoint Microsoft Office dasturlar to'plamining bir qismi hisoblanadi. PowerPoint ko'p tanlovli animatsiyalar va shablonlarga ega.

Xulosalar. Axborot oqimining jadal o'sishi sharoitida mustaqil ravishda ijodiy va tanqidiy fikrlay oladigan, raqamli va Dasturiy vosita-axborot kompetentligiga ega shaxsni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida ta'limni elektron ta'limiy Dasturiy vosita muhitda tashkil etish va o'tkazishning nazariy, tarixiy va metodik jihatdan sog'lom g'oyasini yaratish zarurati bilan belgilanadi. Dasturiy vositalar va ularning didaktik xususiyatlari oliy ta'lim talabalarining dasturiy vositalar yordamida ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirish da samarali ta'lim jarayonini tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Ular talabalarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, ko'nikmalarini rivojlantirish va ta'lim jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatini yaratadi.

Adabiyotlar:

1.Рахмонова Д. Коммуникативная компетентность как основная цель обучения английскому языку как второму иностранному //in Library. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 168-172.

3.Toshmirzaevna R. D. XORIJIY TILDA MUSTAQIL FIKRLASHDA TARG'IBOT VOSITASINING VAZIFALARI VA O'RNI //International Conference. – 2024. – Т. 1. – №. 9. – С. 33-35.

4.Toshmirzaevna R. D. ISHLAB CHIQRISH VA ISTE'MOL DARAJASINING ORTISHI JARAYONIDA XORIJIY TILLARNING AHAMIYATI //International Conference. – 2024. – Т. 1. – №. 9. – С. 36-40.

5. Rakhmonova D.T. Xorijiy tillarni o'rganish jarayonida ped texnologiyalar vositasida aralash ta'limning afzalligi va ahamiyati//Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari 2024, 12-son

6. Rahmonova Dilnoza Toshmirzayevna DASTURIY VOSITALAR YORDAMIDA INGLIZ TILINI O'QITISH METODIKASI // ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Часть-49 Том-2 июль-2025

7. Rahmonova Dilnoza Toshmirzayevna DASTURIY VOSITALAR YORDAMIDA INGLIZ TILINI O'QITISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI VA TAHLILI// ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Часть-49 Том-2 июль-2025